



ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" ASARIDA TARIXIY
SHAXSLAR INOKSI

Shermo'minova Jasmina Shavkatovna

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

jshermominova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari haqida ma'lumot beriladi hamda "Nasoyim ul-muhabbat" asarida keltirib o'tilgan tarixiy shaxslar hayotiga oid hikoyat va rivoyatlar to'g'risida to'xtalib o'tiladi va tahlil qilinadi, shuningdek Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" asari bilan solishtiriladi.

Kalit so'zlar: Navoiy, Jomiy, tarixiy shaxslar, shayx, mutafakkir, syujet.

Аннотация: В статье дается информация о произведении Алишера Навои «Насайим ул-мухаббат», рассматриваются и анализируются рассказы и повествования о жизни исторических личностей, упомянутых в произведении «Насайим ул-мухаббат», а также проводится его сравнение с произведением Абдурахмана Джамии «Нафохат ул-унс».

Ключевые слова: Навои, Джамии, исторические личности, шейх, мыслитель, сюжет.

Abstract: This article provides information about Alisher Navoi's work "Nasayim ul-muhabbat" and discusses and analyzes the stories and narrations about the lives of historical figures mentioned in the work "Nasayim ul-muhabbat", as well as comparing it with Abdurahman Jami's work "Nafohat ul-uns".

Key words: Navoi, Jami, historical figures, sheikh, thinker, plot.

G'azal mulkining sultoni, turkiy til asoschisi buyuk bobomiz Alisher Navoiyni butun dunyo davlatlari tan olganligi shubhasizdir. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotida tug'ildi. Zamondoshlari uning haqida ko'pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. Nizomiddin — din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni G'iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan. Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu shaxs to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida tilga oladilar.

Uning ko'pgina asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan, ulardan eng mashhurlari quyidagilardir: "Xamsa", "Nasoyim ul-muhabbat", "Mahbub ul- qulub",



"Xazoyin ul-maoniy" va boshqalar, ularning ko'pchiligi pand-nasihat ruhida yozilgan hamda asosiy g'oya Allohni tanish va unga bo'lgan muhabbatdir. "Nasoyim ul-muhabbat" ya'ni "Muhabbat shabadalari" asari 1495-1496 yillarda Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asari ta'sirida yozilgan, asarning tanqidiy matni muallif yashagan davrda ko'chirilgan nusxa asosida 1996-yil Turkiya (Anqara)da Kamol Eraslon tomonidan yaratilgan. 2011-yil navoiyshunos olim H.Islomov ham mazkur asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratib, chop qildirdi. Asarda milodiy VIII asrning boshidan XV asrning oxiriga qadar Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alarida yashab o'tgan avliyolarning tarjimai holi, ibratli hikoyatlar hamda o'git va hikmatlaridan namunalar keltirilgan. Jomiy asariga tanqidiy qaraydi va shunday deydi: "Burungi zamondagi mashoyihning barchasini bitmaydilar va o'z zamonasi vakillarining ko'pini, o'zlarini ham zikr qilmaydi,"- deb ta'kidlab o'tadi va shu so'zlarga amal qilib Jomiydan farqli o'laroq o'z asariga Lutfiy, Ashraf, Shayx Sa'non, Nosir Xusrav, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy shular qatoriga Jomiy ham kiritadi hamda ushbu asardan shayx va mutafakkirlarining faqat so'fiyona hayotini emas, balki adabiyot va jamiyatdagi tutgan o'rnini ham ko'rsatib bergan. Asarning tuzilishiga keladigan bo'lsak, muqaddima va 770 ta shayx (35 ta avliyo ayollarning hayoti haqida ma'lumot berilmagan edi, ya'ni 153 ta shayx keltirilgandi) ikkinchi marotaba nashr ettirilganda to'liq ma'lumotlar bilan nashr etildi. Muqaddima o'z navbatida arabcha hamd va na't, asarning yozilishi sababi, "Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi", "Bu toifaning a'mol-u af'ol va muomilot-u riyozotidin ba'zini zikr qilmoq", "Avliyoullohga voqe' bo'lg'on xavoriqi odotu karomot bayoni" boblariga bo'linadi. Hamd va na't mazmunidagi arabcha jumlar baroati istehlol san'atining yuksak namunasi sanaladi. Navoiy bu orqali ahli sunnat va jamoat e'tiqodida ekanligini qayd etadi. Asarning yozilishi tarixi va sababi mazmunidagi parchada XI-XV asrlar tasavvuf tarixini qamrab oluvchi ishonchli manba bo'lmagani, Abdurahmon Jomiy Navoiyning iltimosi bilan bu vazifani sharaf bilan uddalagani, "Nafahot ul-uns" tazkirasi katta shuhrat topib, qo'lma-qo'l bo'lib ketgani, yozilganidan yigirma yil o'tib, Navoiy Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasini tarjima qilish orqali turkiylarning fors va arab tilidan bexabar bo'lgan qatlamini tasavvufning yetuk namoyandalari bosib o'tgan ibratli hayoti bilan tanishtirish maqsadida "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasini yozgani haqida ma'lumot beriladi. "Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi" deb atalgan qismda Navoiy inson yaratilishi sababi, Allohning hikmati, payg'ambarlar sayyidi Muhammad (s.a.v.)ning Haqqa habib ekanligi bilan bog'liq tushunchalarni bayon qiladi. Alisher Navoiy Rasululloh (s.a.v.)dan so'ng payg'ambarlik eshigi berkitilgan bo'lsa-da, mo'minlar pok e'tiqod, taqvo bilan Allohga do'stlik - valiylik maqomiga erishishlari mumkin, chunki "Olimlar - payg'ambarlarning vorislaridir", valiy zotlarning barchasi Alloh yo'lida sobit bo'lgan zotlardir, ular xalqni to'g'ri yo'lga boshlaydi, deb ta'kidlaydi.

"Bu toifaning a'molu af'ol va muomilotu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq" bobi avliyolarning a'moli - amallari, af'oli - le'l-atvori, muomilotu riyozati - muomalasi (xalq bilan munoHabati) va Haq yo'lida chekadigan mashaqqatlarini yoritishga bag'ishlangan. Unda valiy zotlar bilan bog'liq luqma halolliqi, Hlmriatga amal qilish, iymon kalimasini





ruhga singdirish, besh vaqt namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, haj qilish, odob, liilm.taqdirga rizo bo'lish va sabr qilish, sidq - rostgo'ylik, riyozat chekish kabi amallar keltirib o'tiladi. Bu fazilatli amallnr oddiy odamlarnikidan farq qiladi. Asarda keltirilishicha, Iymon kalimasi - kalimai shahodatni hamma chin dildan aytihli! mumkin, lekin valiylar bu kalomni aytib, hushlarini ham 243 yo'qotishlari mumkin. Yoki shariatda zakot molning qirqdan bir qismini faqirlarga berish bilan amalga oshirilsa, valiylar qo'lidagi narsaning ortig'i bilan ehson qilishni zakot deb bilishlari haqida ibratli fikrlar keltiriladi (shayx Abu Bakr Shibliyning bir faqihga bergan javobi misolida). Bundan tashqari, luqma halolligiga erishish uchun har bir valiy zot o'z kasbi koriga ega bo'lgan. Masalan, Shayx Abu Said Xarroz, Xoja Abdulloh Ansoriylar etikdo'zlik, shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik, shayx Abu Hafz Haddod temirchilik bilan mashg'ul bo'lganlar.

Tarix va madaniy merosimizni keng o'rganayotgan hamda naqshbandiylik ta'limotiga rag'bat ko'rsatayotgan ekanmiz, bu asarni to'liq nashr etish ilmiy axloqiy va ma'naviy jihatdan ahamiyatlidir. "Nasoyim ul- muhabbat" asarida shayxlar haqida juda ajoyib ma'lumotlar va hikoyatlar keltirib o'tilgan, xususan, Uvays Qaraniy haqida shunday hikoyat keltirilgan. Umda aytilishicha payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollolohu alayhi vasallam Uhud jangida tishidan jarohatlangani uchun u ham 32ta tishini to'kib tashlaydi. Shuningdek "Nasoyim ul- muhabbat" asarida onalarga ehtirom, ularni hurmat qilish mavzusidagi hayotiy dalillarni Shayx Mo'min Sheroziy, Shayx Abduqodir Jiliy, Pahlavon Mahmud, Shayx abu Abdulloh Xadiflar hayotidagi misollarda keltirib o'tgan. Xususan, bir hikoyasidan yuqorida keltirib o'tgan shayx haqida hikoyatning birida atilishicha, Shayx masjidda o'tirsa, yoniga bir odam kelib men ham sizdek qirq marta hajga borib savob olishni istardim deganlarida onang bormi dedilar ha javobini olgandan keyin sen onangni bir marta ko'nglini shod etganingni menga ber men senga 40 marta hajga borgan savobimni beraman dedilar, shuningdek, asarda Ahmad Yassaviy hayotiga alohida e'tibor beradilar va muqaddimada ham keltirib o'tadi. Qusam Shayxini Ahmad Yassaviy avlodlariga borib taqaydi. Ahmad Yassaviyni asarning 611-o'rnida keltirib o'tgan.

Xulosa qiulib aytganda, "Nasoyim ul-muhabbat" asari tasavvuf adabiyotining yuksak namunasi bo'lib, unda tarixiy shaxslar – xususan, avliyolar, solih zotlar va tasavvuf namoyandalari hayoti, faoliyati va axloqiy fazilatlar chuqur yoritilgan. Bu shaxslarning obrazlari orqali asarda islomiy-ma'naviy qadriyatlar, ixlos, tavba, sabr va toqat kabi tushunchalar in'ikos etadi. Ularning hayotiy tajribalari zamonaviy o'quvchi uchun ham ibrat maktabi bo'la oladi. Asarda tarixiy shaxslar faqat tarix sahifasidagi shaxs sifatida emas, balki o'zbek milliy tafakkuriga singib ketgan, e'tiqod va axloqiy mezonlarni shakllantiruvchi timsollar sifatida namoyon bo'lgan. Bu jihatlar asarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Sirojiddinov, S. Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 1974.
2. Navoiy, A. Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim il-futuvvat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
3. . G'aniyeva, N. Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
4. Jo'rayev, M. Navoiy asarlarida tarixiy shaxslar obrazi. – Samarqand: Ilm ziyo, 2012.
5. G'oyibnazarova, M. Tasavvuf va Navoiy. – Toshkent: Fan, 2004.

